

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INTEGRATIV YONDASHUV – YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RAQOBATBARDOSH KADRLARDA ANTITSIPATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK OMILI SIFATIDA

Sadriddinova Feruza Meliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent.

e-mail: s.feruza@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-9160-5431>

Annotatsiya.

Maqolada global noaniqlik sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda antitsipativ kompetensiyani rivojlantirishning mohiyati va tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Integrativ yondashuvning strategik ahamiyati asoslanib, mualliflik ta'rifi keltirilgan. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda ta'lim amaliyotiga forsayt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, antitsipativ kompetensiya, forsayt tadqiqotlari, prognostik tafakkur, kelajak ssenariylari, pedagogik paradigma, kompetensiyaviy yondashuv, noaniqlik muhiti, strategik rejalashtirish, kognitiv moslashuvchanlik.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ АНТИЦИПАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Садриддинова Феруза Мелиевна

Джизакский государственный педагогический университет, доцент.

Аннотация.

В статье анализируются сущность и компоненты развития антиципационной компетентности конкурентоспособных кадров в условиях глобальной неопределенности. Обосновано стратегическое значение интегративного подхода, приведено авторское определение. Разработаны научно-практические рекомендации по модернизации высшего образования и внедрению форсайт-технологий в образовательную практику.

Ключевые слова: Высшее образование, антиципационная компетентность, форсайт-исследования, прогностическое мышление, сценарии будущего, педагогическая парадигма, компетентностный подход, среда неопределенности, стратегическое планирование, когнитивная гибкость.

INTEGRATIVE APPROACH AS A STRATEGIC FACTOR FOR DEVELOPING ANTICIPATORY COMPETENCE IN COMPETITIVE PERSONNEL IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Sadriddinova Feruza Meliyevna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor.

Abstract.

The article analyzes the essence and components of developing anticipatory competence of competitive personnel under global uncertainty. The strategic importance of an integrative approach is justified, providing an author's definition. Scientific and practical recommendations for modernizing higher education and implementing foresight technologies into educational practice are developed.

Keywords: Higher education, anticipatory competence, foresight research, prognostic thinking, future scenarios, pedagogical paradigm, competency approach, uncertainty environment, strategic planning, cognitive flexibility.

Kirish. Jahon hamjamiyati XXI asrning uchinchi o'n yilligida o'ta murakkab, tez o'zgaruvchan va noaniqliklar darajasi yuqori bo'lgan davrni — ilmiy diskursda ko'pincha VUCA (Volatility — o'zgaruvchanlik, Uncertainty — noaniqlik, Complexity — murakkablik, Ambiguity — mavhumlik) deb nomlanuvchi reallikni boshdan kechirmoqda. Ushbu global sivilizatsion o'zgarishlar, tabiiyki, ijtimoiy institutlarning eng muhimi bo'lgan oliy ta'lim tizimi oldiga prinsipial jihatdan yangi, strategik ahamiyatga ega vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi shiddatli davrda faqatgina mavjud bilimlar bazasini o'zlashtirgan mutaxassislar mehnat bozorining keskin talablariga dosh bera olmaydi. Shu sababli ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni kelajakka yo'naltirilgan tizimga aylantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlangan global chaqiriqlar va ta'lim paradigmalari almashinuvi fonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning huquqiy asoslari tahlili shuni yaqqol ko'rsatadiki, tez o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitida nafaqat bugungi kun talablariga javob beradigan, balki kelajakni prognoz qila oladigan, innovatsion fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi eng yuqori darajadagi konseptual

hujjatlarda o'z aksini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan bo'lib, bu bevosita ta'lim mazmunini futurologik (kelajakka yo'naltirilgan) yondashuvlar asosida boyitishni taqozo etadi.

Ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo'lgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, unda xalqaro standartlarga mos keluvchi innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish zarurati alohida ta'kidlangan [1; 9-b.]. Konsepsiyada bitiruvchilarda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish, tizimli va tanqidiy fikrlash bilan bir qatorda, istiqbolni belgilay olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qo'yilgan [1; 10-b.]. Shuningdek, yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2020-yil) ham kompetensiyaviy yondashuvni qo'llab-quvvatlab, ta'lim oluvchilarni mustaqil hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy metodologiyalardan foydalanish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar majmui shundan dalolat beradiki, oliy ta'limda talabalarning antitsipativ (forsayt) kompetensiyalarini shakllantirish masalasi shunchaki ilmiy qiziqish doirasidagi nazariy faraz emas, balki mamlakatning innovatsion va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan aniq davlat buyurtmasi hamda kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy-pedagogik zaruratdir.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ma'lumki, uzoq yillar davomida hukmronlik qilgan an'anaviy ta'lim paradigmasi asosan "tayyor" bilimlarni translyatsiya qilish va o'tmish tajribasida sinovdan o'tgan reproduktiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan edi. Bu yondashuv barqaror rivojlanish davrida o'zini oqlagan bo'lsa-da, bugungi kunda — bilimlar eskirish tezligi keskin ortgan va kelajak kasblarining qiyofasi noaniq bo'lib turgan sharoitda — mutlaqo yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy mehnat bozori va jamiyat nafaqat bugungi kun talablariga adaptatsiya qila oladigan, balki ertangi kun chaqiriqlarini oldindan ko'ra biladigan (antitsipatsiya), ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini loyihalay oladigan va ularga proaktiv tarzda tayyor tura oladigan mutaxassislarga keskin ehtiyoj sezmoqda. Shu bois zamonaviy pedagogik paradigmalar almashinuvi jarayonida oliy ta'lim didaktikasining kategoriya apparatida "antitsipatsiya" va "forsayt" tushunchalarining aktualashtirilishi hamda ularning kompetensiyaviy yondashuv doirasida qayta ko'rib chiqilishi qonuniy holatdir.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "antitsipativ (forsayt) kompetensiya" fenomenining mohiyatini ochib berish uchun dastlab uning tayanch tushunchalari genezisiga to'xtalib o'tish lozim. "Antitsipatsiya" (lot. *anticipatio* — oldindan sezish, oldindan ko'rish) fenomeni dastlab falsafa va psixologiya fanlarida fundamental tarzda tadqiq etilgan. Xususan, akademik P.K. Anoxinning funksional tizimlar nazariyasida antitsipatsiya yuqori darajada tashkil topgan materiyaning (miyaning) universal xossasi — kelajakdagi voqelikni oldindan modellashtirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan, bu insonning o'tmish tajribasi va joriy vaziyatni tahlil qilish asosida kelajakdagi voqealar rivojini prognoz qilish, kutilayotgan natija "akseptori"ni shakllantirish va shunga mos ravishda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish mexanizmidir. B.F. Lomov va E.N. Surkov ham o'z tadqiqotlarida antitsipatsiyaning faoliyat tarkibidagi o'rni va uning inson psixikasidagi boshqaruvchanlik funksiyasini keng yoritib berganlar [2; 54-b.].

Ikkinchi tayanch tushuncha — "forsayt" (ing. *foresight* — kelajakni ko'rish, uzoqni ko'zlash) nisbatan yangi termin bo'lib, dastlab iqtisodiyot, texnologik prognozlash va strategik boshqaruv sohalarida paydo bo'lgan. Forsaytni oddiy bashorat (prognoz)dan farqlash prinsipial ahamiyatga ega. Agar prognoz ko'pincha mavjud tendensiyalarning kelajakda davom etishini ekstrapolyatsiya qilishga asoslansa, forsayt bu kelajakni passiv kutish emas, balki uni faol "qurish" metodologiyasidir. Forsayt yondashuvi kelajakning yagona emas, balki ko'p variantli ekanligini (alternativ ssenariylar: optimistik, pessimistik, realistik va h.k.) tan oladi hamda bugungi kunda qabul qilinayotgan qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini jamoaviy ekspertiza asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Oliy ta'limda forsayt texnologiyalarining qo'llanilishi talabalarda tor kasbiy doiradan chiqib, tizimli va strategik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv OECDning "Education 2030" xalqaro konseptual dasturida ham global ta'limiy tendensiya sifatida e'tirof etilgan [3; 55-b.].

3. Muhokama. Zamonaviy oliy ta'lim paradigmasida bu ikki tushunchaning organik integratsiyasi "antitsipativ (forsayt) kompetensiya" fenomenini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv joriy etilayotgan bir paytda, ushbu tushuncha va uning tarkibiy qismlari hali konseptual jihatdan to'laqonli kristallashtirmagan hamda o'zining ilmiy ta'rifini kutmoqda. Ko'pgina tadqiqotlarda, xususan, I.A. Zimnyaning ishlarida kasbiy kompetensiyalar (hard skills) va kalit (yumshoq) ko'nikmalar (soft skills) haqida batafsil so'z boradi [4; 29-b.]. Biroq kelajakka yo'naltirilgan integral sifatlar uzoq vaqt davomida e'tibordan chetda qolib kelayotgan edi.

Vaholanki, antitsipativlik zamonaviy mutaxassisning "o'zagini" tashkil etuvchi metakompetensiyalardan biriga aylanib bormoqda. Olib borilgan nazariy-metodologik tahlillar, xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalar sintezi hamda zamonaviy mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, biz ushbu maqola doirasida antitsipativ (forsayt) kompetensiyaga quyidagicha mualliflik ta'rifini taklif etamiz:

Antitsipativ (forsayt) kompetensiya — bu oliy ma'lumotli mutaxassisning professional faoliyat sohasidagi va kengroq ijtimoiy-iqtisodiy kontekstdagi ehtimoliy o'zgarishlar, zaif signallar hamda innovatsion trendlarni tizimli tahlil qilish asosida kelajakning alternativ ssenariylarini modellashtira olish, uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklar va chaqiriqlarga proaktiv (oldindan) moslasha olish imkonini beruvchi integral kognitiv-faoliyatli shaxs sifati va kasbiy tayyorgarlik darajasidir.

Ushbu ta'rif fenomenning nafaqat kognitiv (bilish) jihatini, balki uning amaliy faoliyatga yo'naltirilganligini (proaktiv moslashuv va qaror qabul qilish) ham qamrab oladi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bu kompetensiya murakkab

tuzilmaga ega bo'lib, uni oddiy bilimlar yig'indisi sifatida shakllantirib bo'lmaydi. Bu esa ta'lim jarayonida maxsus integrativ pedagogik mexanizmlarni qo'llashni taqozo etadi. J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonov ta'kidlaganidek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarda nafaqat mustaqil fikrlashni, balki amaliy muammolarni tizimli hal qilish layoqatini ham rivojlantirishi lozim [5; 58-b.].

4. Natijalar. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda integrativ yondashuv asosida talabalarning antitsipativ (forsayt) kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlariga bag'ishlangan ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tizimli tahlil va konseptual izlanishlar natijasida aniq didaktik tizim ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida antitsipativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, uning funksiyalari va pedagogik modelining asosiy parametrlari quyidagi jadvalda tizimlashtirildi:

1-jadval. Antitsipativ (forsayt) kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi va integratsiya darajalari

T/r	Kompetensiya komponentlari	Shakllantirishning integrativ usullari	Didaktik kutilayotgan natija
1.	Kognitiv-prognostik	Fanlararo ma'ruzalar, trend-analiz, keys-stadi texnologiyalari	Strategik va tizimli fikrlash, global trendlarni tahlil qilish layoqati
2.	Amaliy-metodologik	Forsayt laboratoriyalari, Delphi metodikasi, strategik o'yinlar	Kelajak muqobil ssenariylarini loyihalash va modellash tirish ko'nikmasi
3.	Shaxsiy-aksiyologik	Muammoli seminar, jamoaviy loyihalar, keys-tadqiqotlar	Noaniqlik sharoitida mas'uliyatni zimmasiga olish va proaktivlik
4.	Refleksiv-moslashuvchan	Rivojlantiruvchi ta'lim, raqamli simulyatsiyalar, o'yinlar	Kognitiv moslashuvchanlik, qarorlarni istiqbolli tahlil qilish qobiliyati

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, antitsipativ kompetensiyani shakllantirish faqatgina an'anaviy o'quv fanlari doirasida cheklanib qolmay, balki fanlararo chuqur integratsiyani va faol o'qitish metodlarini taqozo etadi. Har bir komponent muayyan didaktik vositalar zanjiri orqali talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasiga transformatsiya qilinadi.

Olingan natijalar bir nechta konseptual yo'nalishlarni oydinlashtiradi. Birinchidan, zamonaviy sivilizatsion o'zgarishlar, xususan, global noaniqlik (VUCA-reallik) va texnologik akseleratsiya sharoitida oliy ta'lim paradigmasining transformatsiyasi muqarrar jarayondir. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, an'anaviy "bilimlar translyatsiyasi" modelidan kelajakni loyihalashga qodir mutaxassislarni tayyorlash modeliga o'tish davr talabidir. Ushbu kontekstda biz tomonimizdan ilmiy asoslangan antitsipativ (forsayt) kompetensiya shunchaki tor kasbiy ko'nikma emas, balki mutaxassisning kelajak ssenariylarini ko'p variantlilik asosida modellash tirish olish, zaif signallarni ilg'ay bilish va strategik proaktiv qarorlar qabul qilishiga imkon beruvchi integral metasifat sifatida namoyon bo'ladi. Bu kompetensiya Yangi O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasida belgilangan inson kapitalini rivojlantirish maqsadlariga to'la mos keladi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, antitsipativ kompetensiyaning murakkab, ko'p komponentli tuzilmasi uni alohida olingan bir fan doirasida shakllantirish imkonini bermaydi. Eng samarali pedagogik mexanizm bu integrativ yondashuvdir. Oliy ta'lim mazmunining fanlararo, muammoviy va amaliyotga yo'naltirilgan integratsiyasi talabalarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga hamda turli sohalaridagi trendlarning o'zaro ta'sirini tushunishga zamin yaratadi. Aynan integratsiya forsayt metodologiyasini (Delphi, ssenariylashtirish, yo'l xaritalari) o'quv jarayoniga organik singdirishning didaktik asosi hisoblanadi.

5. Xulosa. Tadqiqotimizning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish hamda ta'lim amaliyotiga forsayt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oliy ta'lim davlat standartlari va malaka talablariga antitsipativ kompetensiya indikatorlarini kiritish hamda o'quv rejalarida fanlararo "Forsayt laboratoriyalari" yoki loyiha modullarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida reproduktiv metodlardan voz kechib, kelajakka yo'naltirilgan interfaol metodlar, keys-stadilar (kelajak keyslari) va raqamli simulyatsiyalardan keng foydalanish zarur.

Professor-o'qituvchilarda forsayt tafakkurini shakllantirish va ularni innovatsion integrativ texnologiyalarga o'rgatish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini joriy etish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, antitsipativ kompetensiyani shakllantirish bir martalik aksiya emas, balki uzluksiz va tizimli pedagogik jarayondir. Mazkur muammo pedagogika fani uchun dolzarb va ochiq yo'nalish bo'lib qolmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda antitsipativ kompetensiyani sohalar kesimida (texnik, gumanitar, tibbiyot yo'nalishlarida) rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hamda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili texnologiyalarining ushbu jarayondagi didaktik imkoniyatlarini chuqur o'rganish istiqbolli vazifalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 09.10.2019. – № 06/19/5847/3887.
2. Ломов Б. Ф., Сурков Е. Н. Антиципация в структуре деятельности. – М.: Наука, 1980. – 280 с.
3. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
5. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.